Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY- IQTISODIY AHAMIYATI



PhD. dots. A.S. Vasiyev

Vasiyev Alisher Samiyevich

Toshkent moliya instituti o'qituvchisi



Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li

Toshkent moliya instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Islom iqtisodiyotining mohiyati ma'naviy jihatdan mas'uliyatli bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdir. Ushbu maqolada uning o'ziga xos jihatlaridan biri – shaxs va jamiyatning real ehtiyojlarini qondirish, islom iqtisodiy modelida boylikni adolatli taqsimlashga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Islom banklari, Islom moliyasi, Islomiy kapital, Islomiy obligatsiyalar (Sukuk), sudxo'rlik.

**Abstract:** The essence of Islamic economy is to create a morally responsible market economy system. This article focuses on one of its unique aspects - meeting the real needs of individuals and society, fair distribution of wealth in the Islamic economic model.

**Key words:** Islamic banks, Islamic finance, Islamic capital, Islamic bonds (Sukuk), usury.

**Аннотация:** Суть исламской экономики заключается в создании морально ответственной системы рыночной экономики. Данная статья посвящена одному из ее уникальных аспектов – удовлетворению реальных потребностей личности и общества, справедливому распределению богатства в исламской экономической модели.

**Ключевые слова:** исламские банки, исламские финансы, исламский капитал, исламские облигации (сукук), ростовщичество.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida "islom banklari" nomi ostidagi muassasalar soni yildan-yilga ko'payib, aktivlari hajmi ham tobora oshib bormoqda. Yaratilganiga yarim asrdan oshgan bu turdagi banklar nomusulmon o'lkalarga qo'yinki, musulmon jamiyatlardan ham ko'ra tezroq va osonroq kirib borayotgani hech kimga sir bo'lmay qoldi. Buning sababini turlicha izohlash mumkin. Masalan, ba'zi iqtisodchilar islom banklari faoliyatining real aktivlarga asoslanganini asosiy omil qilib ko'rsatishsa, ba'zilari ularning moliyaviy inqirozdan holi ekanligini ta'kidlashadi. Yana ba'zi olimlar bu kabi banklar jamiyat uchun zararli hisoblangan ko'plab faoliyatlarni cheklashi haqida bahs yuritishadi. Bizning fikrimizcha bu omillarning barchasi ushbu banklarni hozirgi amaldagi an'anaviy banklar bilan solishtirganda bir qator afzalliklarini yuzaga keltirgan. Buning isbotini iqtisodiy tahlillar o'tkazish orqali osongina ko'rish mumkin. Islom banklari faoliyati Islom fiqhiga asoslangani bois ular ba'zi turdagi tijoratlarga ruxsat bergan holda ba'zi turdagi tijoratlarni taqiqlashni talab etadi. Shunisi bilan ularni ma'lum bir davlatga olib kirish uchun ancha ter to'kilishi kerak bo'ladi.





Islom moliyasini tushunish uchun asosiy atamalar:

- **Sukuk** qimmatli qog'ozlarning islomiy tamoyillarga mos keluvchi turi bo'lib, mablag'larni jalb etishda va investitsiya kiritishda obligatsiyalarga ekvivalent sifatida foydalaniladi.
- **Sudxo'rlik** – g'oyat og'ir shartlar bilan qarz berib, foyda olinadigan faoliyat.

Umuman olganda, an'anaviy banklar yetakchilik qilayotgan har qanday o'lkada birdaniga islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yish oson ish emas, albatta. Lekin shunga qaramay bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirgan Malaziya, Buyuk Britaniya, BAA va Saudiya Arabistoni kabi bir nechta mamlakatlarni tilga olishimiz mumkin. Shu bilan birga, ba'zi mamlakatlarda hukumat boshqaruvidagi demokratiyaning nomiga ekanligi, ya'ni aslida byurokratik tizim ustuvor ekanligi evaziga ko'plab sa'y-harakatlar bekor ketmoqda. Va yana boshqa birilarida xato-kamchiliklar va nojoiz amaliyotlar sababidan ko'plab ishbilarmonlarning sohaga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqi so'nib, hafsalasi pir bo'lgani ham haqiqat. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekistonga islom bankchiligi va islomiy moliyaviy faoliyatni olib kirishda har tomonlama o'ylab, iqtisodiy va moliyaviy tahlillar o'tkazib, kerak bo'lsa xorijiy tajribalarni chuqur o'rganib, ana undan keyin zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Musulmon davlatlaridagi mavjud islomiy moliyashtirishga asoslangan banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalarining mablag'larini O'zbekistoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun albatta milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi.


Islomiy moliyalashtirish bilan an'naviy moliyalashtirishning asosiy farqi, birinchisi foyda va zararni bo'lishishga, shuningdek aktivlarga asoslangan moliyalashtirish sherikchilikka asoslanadi. Bunda bank mijozni talabi asosida obyektini qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirishni asosida savdo operatsiyalari yotadi. An'naviy bank tizimida esa savdo operatsiyalarini amalga oshirish qonunchilik nuqtayi nazaridan mushkul hisoblanadi va bunga soliqqa tortish va bank faoliyatiga tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar to'sqinlik qiladi.

Islom bankini ochishga qo'yiladigan talablar ko'pincha mamlakatdan mamlakatga katta farq qiladi. Islom bankini tashkil etishda dastlab an'anaviy banklarni tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha ishlab chiqilgan qoidalarga rioya qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Ushbu qoidalar mamlakatdagi butun bank tizimini ta'minlash uchun alohida bank muassasalarining hayotiyiligi va mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan, ular ko'pincha omonatchilar uchun kapitalning aniqligi va omonatlarning daromadlilik darajasining aniqligi kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, Islom bankini tashkil etish istagida bo'lgan homiylar islom banki operatsiyalariga ta'sir ko'rsatadigan milliy bank qonunlari va qoidalaridan xabardor bo'lishlari muhim, ular faoliyatning amaldagi qonunchilikka muvofiq oldindan tasdiqlanganligini ta'minlashlari kerak, yoki islom banki faoliyatiga ruxsat berish uchun tartibga soluvchi organdan qaror talab qilishi kerak. Islom bankining yangi biznes amaliyotlarini joriy etish asosiy faoliyati an'anaviy banklarni tartibga solish va nazorat qilish bo'lgan tartibga soluvchi organ uchun g'ayrioddiy tashvish bo'lishi mumkin. Aksariyat Markaziy banklar tijorat banklaridan o'z majburiyatlarining bir qismini tasdiqlangan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish yo'li bilan likvidlik maqsadlarida kapitalning etarlilik koeffitsiyentiga rioya qilishni talab qiladilar.

Bundan tashqari, islom bankini tashkil etish istagida bo'lgan homiylar uchun korporativ soliq va jismoniy shaxslar soliq tuzilmalarini o'rganish va mavjud imtiyozlarni izlash muhimdir. Islom banki uchun soliq oqibatlari odatdagidan ko'ra ko'proq majburiydir. Aslida, islom banki omonatchilariga to'lanadigan foyda, odatdagi banklarning o'z omonatchilariga to'laydigan foizlari kabi, bank uchun maqbul to'lov sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Tashkiliy guruh mamlakatning valyuta pozitsiyasini ham o'rganishi kerak, chunki u bankning tashqi savdo operatsiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi va ularning jarayonlari va rentabelligiga ta'sir qilishi mumkin. Aslida, chet el valyutasining erkin chiqib ketishiga valyuta nazorati cheklovlarini o'rnatgan mamlakatda investitsiyalarning ko'p qismi mahalliy valyuta ekvivalentida amalga oshirilishi kerak bo'ladi, bu importni moliyalashtirish hajmiga ham salbiy ta'sir qiladi va agar islom banki chet el valyutasida ortiqcha likvidlikka ega bo'lsa, u o'zi pulni investitsiya qila olmaydi. Resurslarni xalqaro bozorlarga investitsiya qilish hamda bank kapitali, dividendlar va foydani repatriatsiya qilish to'g'risidagi qoidalar o'rganilishi kerak bo'lgan boshqa muhim jihatlardir.

Ekspertlar fikricha, jahon bozorida islom moliyasi g'arb moliya tizimini inqiroz holatiga olib kelgan salbiy omillarga qarshi turish imkoniyatini berdi. Bugungi kunda bank islom dunyosidan tashqari mamlakatlar uchun ham xizmat ko'rsatib, ularga ham ulkan imkoniyatlar yaratmoqda.


Islom Taraqqiyot bankining maqsadi "Shariat tamoyillari asosida a'zo davlatlar va musulmon jamoalarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash" hisoblanadi. ITBiga 57 ta davlat a'zo bo'lib, aktivlari 150 mlrd AQSH dollaridan ortadi.



3-rasm: ITB ning asosiy aksiyador davlatlari<sup>1</sup>

Yuqoridagi rasmdan bilish mumkinki, ITBning asosiy ustav kapitalidagi katta ulush Saudiya Arabistoniga, so'ngra Liviya, Eron va Nigeriya davlatlari o'rin egallaydi. O'zbekistonning ulushi esa 0.03 % ni tashkil etib, bir foizga ham bormaydi.

Qayd etish zarurki, O'zbekiston Islom taraqqiyot bankiga 2003-yilda a'zo bo'lgan. Shu yillar mobaynida jami 2.5 mlrd dollardan ortiq 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma'qullanib, loyihalar doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo'llar, elektr va ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, sog'liqni saqlash muassasalari zamonaviy jihozlangan.



4-rasm: Islom taraqqiyot bankining kapital resurslari tarkibi<sup>2</sup>

Yuqoridagi 3-rasmda ko'rinib turibdiki, Islom Taraqqiyot bankining xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) tomonidan berilayotgan kredit portfeli yildan-yilga oshib bormoqda. 2016-yilda XISMK 34.02 % ni tashkil etib, 2019-yilga kelib 73.8 % ga oshgan. XISMK mablag'larni tovar-xom ashyo sotib olishni moliyalashtirish muddati 12 oy, agar asosiy vosita (asbob-uskuna) sotib olishga yo'naltiradigan bo'lsa 24 oygacha moliyalashtiriladi.

Islom taraqqiyot banki O'zbekistonning 10 yirik kreditorlari qatoriga kiradi. Xalqimiz uchun hamkorlikning yangi istiqbollari ochilib, yig'ilish doirasida Islom taraqqiyot banki O'zbekistonda Islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun loyiha orqali mamlakatda islomiy bank va moliya uchun qonuniy va texnik asoslar yaratilishi, shuningdek, aholining islom moliyasidan xabardorlik darajasini oshirishni ko'zlanganligi quvonarli bo'ldi<sup>3</sup>. O'zaro hamkorlikning muhim jihatlaridan biri – ITB O'zbekistonda qishloqlarni barqaror rivojlantirish loyihasi uchun 200 mln dollar miqdorida pul ajratayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu mablag'lar ko'magida mahalliy boshqaaruv jarayoni hamda jamoatchilik ishtirokida asosiy infratuzilma va xizmatlardan foydalanishni yaxshilash, qishloq aholisining turmush darajasini oshirish,

<sup>1</sup> ICD annual report 2019

<sup>2</sup> ICD annual report 2019

<sup>3</sup> "Xalq So'zi" gazetasi ma'lumotlari



kambag'allikni qisqartirish, aholining turli holatlarga, xavf-xatarlarga chidamliligini oshirishga erishilishi – inson-parvarlikning eng oliy namunasi bo'ladi.

Toshkentda sentabrning 1-4 kunlari Islom taraqqiyot banki boshqaruvchilari kengashi guruhining 46-yillik anjumani bo'lib o'tdi va unda ITB guruhiga a'zo 57 mamlakatdan vazirlar va rasmiylar, shuningdek, 2000 dan ortiq yirik biznes, bank-moliya vakillari hamda soha ekspertlari ishtirok etdi. Darhaqiqat, bunday yirik anjumaning Toshkentda o'tkazilishi mamlakatimiz banklari va Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi o'rtasida hamkorlik aloqalarini yana-da mustahkamlash, O'zbekistonda ham islom moliyasi tamoyillarining rivojlantirishiga umid uyg'otdi. Mazkur xalqaro anjuman doirasida O'zbekiston va ITB o'rtasida bir qator o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini kengaytirish bo'yicha hujjatlar imzolandi. Xususan, Sammitda, ITB guruhi va o'nta a'zo mamlakat o'rtasida umumiy qiymati 1,2 milliard AQSH dollariga teng 30 ta moliyaviy kelishuv imzolandi. Shundan 330 million dollariga teng mablag' O'zbekiston manfaatlarini ko'zlab sarflanadi.

Jamg'armaning 200 mln dollarlik investitsiyalari "Obod qishloq dasturi"ga kiritilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Kichik va o'rta biznes hamda startap loyihalar, infratuzilmani modernizatsiyalash va xizmatlardan foydalanishni yaxshilash orqali qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tufayli mamlakatda 100 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi va 34 mingga yaqin kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyati tiklanadi.


Islom taraqqiyot banki tomonidan O'zbekistonda islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratiladi.

Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash bo'yicha Islom korporatsiyasi va "O'zbekinvest" EISK AJ o'rtasida sanoat, qishloq va kommunal xo'jaligi, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi ikki tomonlama va mintaqaviy investitsiya loyihalarini sug'urta qilish va qayta sug'urtalash sohasidagi hamkorlikni ko'zda tutuvchi hamkorlik Memorandumi imzolandi.

Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga bir qancha tashkilotlar kirib, shulardan Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (XSRIK) va Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) O'zbekiston banklari bilan hamkorlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda 596-sonli qarori bilan O'zbekiston HSRIKga a'zo bo'lgan va 2006-yildan boshlab mahalliy tijorat banklari va tadbirkorlar bilan hamkorlik qilib keladi. Xususan, Murobaxa (ustama haqi evaziga sotish) moliyalashtirish usuli orqali tijorat banklariga moliyalashtirish liniyalari ajratilgan. Ushbu liniyalardan O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qayta ishlash va iqtisodiyotning boshqa sohalarida ishlab kelayotgan korxonalar o'z faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun foydalanadilar.

Mazkur yo'nalishda XSRIK shu kungacha 15 ta tijorat banklari va 2 ta lizing kompaniyasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan va bugungi kungacha banklarga 285 million AQSh dollari miqdorida moliyalashtirish liniyalarini ajratish ma'qullangan.

O'zbekistonda onkologik xizmatlarni rivojlantirish loyihasini qo'llab-quvvatlash uchun 80 million dollar qarz shartnomasi imzolandi. Bundan tashqari, "Trastbank", "Kapitalbank", "Turonbank", "Infinbank", "Orient Finans bank"ning har biri bilan 10 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish to'g'risida Bitim imzolandi. Islom taraqqiyot banki tomonidan O'zbekistonda islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun texnik yordam granti ajratiladi.




5-rasm: O'zbekiston Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mintaqasida eng ko'p musulmon aholiga ega<sup>4</sup>

4 Manba: Pew Research Center and Moody's Investors Service, 2020



Yuqoridagi rasmdan ayonki, O'zbekistonda islom moliyasi va bankchiligi rivojlanishi esa juda tez sur'atlarda bo'ladi. Aholining 94 foizi musulmon va katta qismi dinga amal qiladi. Sababi 2021-yil aprel oyida online o'tkazilgan so'rovda 2235 nafar biznes vakili va 5 ming nafar jismoniy shaxs ishtirok etgan, unda respondentlarning biznes subektlarining 38 foizi, jismoniy shaxslarning 56 foizi diniy qarashlari sabab an'anaviy bank kredit xizmatlaridan foydalanmasligini bildirgan.

Jalb qilingan mablag'lardan O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qayta ishlash va iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab kelayotgan korxonalar o'z faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun foydalanin kelmoqda. Misol uchun, Trastbank mijozlarga Murobaxa shartnomasi asosida xizmat ko'rsatmoqda.



6-rasm: "Trastbank" XAB ning XAB va XSRIK liniyalarini jalb qilish statistikasi

Yuqoridagi rasmdan yaqqol ko'rinib turibdiki, "Trastbank" XAB5 banki yildan-yilga jalb qilingan resurslari ortib bormoqda. Bank XAB tomondan ajratilayotgan kredit liniyalari 3 yilda deyarli 4 barobargacha oshira oldi. Bundan ayonki, bank ishonchli agent sifatida mablag'larni samarali boshqarmoqda.

Islomda sudxo'rlik, ya'ni pulni foizga berish orqali foyda olish taqiqlangan, an'anaviy bank tizimi esa foizlarga tayanadi. Diniy e'tiqodlarga tayangan, foiz, kredit va shu kabi bank xizmatlaridan foydalanishni istamagan aholi qatlami uchun Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan bank xizmatlari taklif etilsa, bu O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi va ichki investitsiya hajmining ortishiga katta turtki bo'ladi, deb bimalol ayta olamiz. Bu tizimning joriy qilinishi O'zbekistonda jamg'arma va foydalanilmayotgan pul mablag'larini bank tizimiga jalb qilish, xufiyona iqtisodiyot salmog'ini kamaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

ITB O'zbekistonning sinovdan o'tgan ishonchli investorlaridan biridir. Hozirgi kunda respublikaning 10 ta tijorat banki ITBning faol hamkoridir. Bankning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari hajmi esa 2.5 mlrd dollardan oshadi.

Bu borada aniq ma'lumotlarni keltirish mumkin. Xususan, mening nomzodlik ishim doirasida, oliy o'quv yurti talabalari va professor-o'qituvchilari, tadbirkorlar va aholining boshqa qatlami o'rtasida (jami 700 ga yaqin qatnashchilar) Islom moliyasi va bankchiligi to'g'risida fikr va mulohazalarni o'rganish maqsadida shu yilning boshida so'rovnoma o'tkazildi va uning natijalari bo'yicha shuni ayta olamanki, respondentlarning qariyb 90 foizi O'zbekistonda Islom bankchiligini yo'lga qo'yishdan manfaatdor yoki bunga ehtiyoj bor deb hisoblaydi. Shu bilan birga ta'kidlab o'tishim joiz, O'zbekistonda hali Islom moliyasi va bankchiligi haqida tushuncha va bilimlar yetarli emas, chunki bunday moliyalashtirish usullari hali keng tarqalmaganligi va tashviqot olib borilmagani asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Islom moliyasi – qishloq xo'jaligi va sanoati yaxshi bo'lgan mamlakatlar uchun ajoyib vositadir. Chunki islom moliyasi real iqtisodiyot rivojlanishi va uning moliya sektori bilan muvozanatda bo'lishi uchun qulay muhit yaratib beradi. Illo, an'anaviy iqtisodiyotda foizlar keltirib chiqargan bo'sh pufaklarning yorilishi oqibatlarini bartaraf etish uchun doimiy ravishda inqirozlar siklini boshdan kechirishga majburiy.





Diniy, shariat ahkomlariga tayangan foiz, kredit va shu kabi bank xizmatlaridan foydalanishni istamagan aholi qatlami uchun Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan bank xizmatlari taklif etilsa, bu O'zbekiston da islom moliya xizmatlarini keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni ochishi va rivojlantirishiga ishonaman:

- Moliyalashtirish manbalarini ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun diversifikatsiyalash;
- O'zbekistonda real ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- Yaqin Sharq va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan investitsion mablag'larni jalb qilingan taqdirda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bevosita naflar;
- An'anaviy moliyalashtirish tomonidan lozim darajada qamrab olingan moliyalashtirish bozorining mavjudligi (kichik va o'rta biznes subyektlari, agrar sektor);
- O'zbekiston aholisining asosiy qismi islomga e'tiqod etgani sababli, mazkur moliyaviy mahsulotlarga barqaror talabning kutilishi;
- Muqobil moliyaviy mahsulotlar paydo bo'lishi hisobiga aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi;
- Sudxorlik qarz yukini pasaytirish va mamlakatning tizim asosi bo'la oladigan korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida, mamlakatning davlat va xususiy korporativ sektori doirasida jahonda muvaffaqiyat bilan tatbiq etilayotgan vositalar va usullarni joriy etish imkoniyati Islomiy moliyalash asosida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, lizing xizmatlarini ko'rsatish, mahsulotlar eksport geografiyasini kengayishi;
- Ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratilishi hamda kambag'allikni qisqartirish davlat dasturini amalga oshirishga katta hissa qo'shadi deb hisoblayman.

Ushbu ishlarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston islom moliyasi sohasida MDH davlatlari ichida yetakchi mamlakatga aylanishi shubhasiz. Bugungi kunda O'zbekistonda sukuk bozorining rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud va juda qisqa davr ichida sukuk yordamida bir necha milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish mumkin:

- moliyalashtirish qiymati past darajada (masalan, Libor darajasida);
- mamlakatimizdagi loyihalarni daromad darajasi yuqori;
- bizning mintaq bilan hamkorlikni kuchaytirmoqchi bo'lgan Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan islom moliyasi asosida investorlarni jalb qilish imkoniyati mavjud.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Iqtisod-moliya, 2003. – 304.
2. Omonov A.A va Karaliyev T.M. Pul, kredit va banklar. – T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, – 2018. – B.446.
3. Shayx Muhammad Taqi Usmoniy "Islom moliyalashtirishga kirish". 2013-y.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol". Toshkent "Hilol nashriyoti". – 2020.
5. Chapra M.U "What is Islamic Economics?" – Jeddah 2001.
6. Islom fiqhi akademiyasi Kengashining qaror va tavsiyalari – fatvolar /M.F.Murtazin tarjimalari. – M.,2003. – 143-b.
7. Sayyid Manazir Ahsan Gilanii.Islam Ma'ashiyat. – Hyderabad,1947.
8. E.A.Baydaulet "Islomiy moliya asoslari". – Toshkent: O'zbekiston 2019-y.
9. R.I.Bekkin "Islom iqtisodiy modeli va zamon".–Toshkent: O'zbekiston 2019-y.
10. S.Xorun,B.Nursofiza"Islomiy moliyalar va bank tizimi. Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti". – Toshkent 2014.
11. Mahmud Mannon "Islomiy iqtisod: Nazariya va amaliyot".
12. Internet saytlari:  
<http://www.uba.uz> – O'zbekiston Banklar Asotsiatsiyasi rasmiy sayti.  
<http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.  
<http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining veb-sayti.  
<http://www.prezident.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.  
<http://www.bfa.uz> – Bank-moliya akademiyasi rasmiy sayti.  
<http://www.icd.uz> – Islom Taraqqiyot banki rasmiy sayti.  
<http://www.SBP.com> – Pokiston Markaziy banki rasmiy sayti.  
<http://www.fitchRatings.com> – Reyting agentligi.  
<http://www.TheBanker.com> – Reyting agentligi.  
<http://www.banking-business.com> – Reyting agentligi.  
<http://www.islommoliyasi.uz> – Islom moliyasini.  
<http://www.trastbank.uz> – "Trastbank" XAB ning rasmiy sayti.  
<http://www.kun.uz> – Yangiliklar sayti.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.